

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z YASALISH JARAYONINING TARIXIY BOSQICHLARI.

Akmal Tursunov Raxmatullayevich

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
(93) 437-37-11 akmal_tursunov_1971@gmail.com*

Tashpulatova Dilshoda Sheraliyevna

Xudoyorova Zahina Dilshodovna

2-25 Ek guruh talabasi

Annatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida so'z yasash jarayonining tarixiy bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek tilida so'z yasash tizimining shakllanishi, uning qadimgi turkiy davrdan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, so'z yasash usullari, ularning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari hamda til taraqqiyoti jarayonida yuz bergan o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.*

Maqolada turli davrlarga mansub yozma manbalar va tilshunos olimlarning qarashlari tahlil qilinib, o'zbek tilida yangi so'zlarning hosil bo'lish mexanizmlari va ularning tarixiy taraqqiyoti ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilida so'z yasash tizimining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga hamda zamonaviy o'zbek tilshunosligida ushbu masalani chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlari: *morfologik, grammatik, so'z yasashi, fonetik fonologik, semantik, derivatsiya.*

Keyword: *linguistics, first of all, Turkish language, form, history and modernity.*

Ключевые слова: *morfologicheskiy, grammaticheskiy, slovoobrazovatelnyy, foneticheskiy fonologicheskiy, semanticheskiy, derivatsionnyy.*

KIRISH

O'zbek tilshunosligida so'z yasashi ilk bosqichi umumiy tilshunoslikka doir manbalarda «morfologik bosqich» sifatida farqlanadi³. Mazkur bosqichda shakllangan morfologik an'ana, so'z yasashiga doir izlanishlarda o'tgan asrning o'rtalariga qadar izchil davom etdi. Xususan, o'tgan asrning boshlarida

Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan o'zbek tiliga doir qo'llanmada, shuningdek, A.N. Kononov va V.V.Reshetov kabi olimlar tomonidan chop ettirilgan darsliklarda ham tilshunoslik tarixida yuzaga kelgan ana shuan'ananing ta'sirini kuzatish mumkin.

Jumladan, A.M.Shcherbak tomonidan bildirilgan quyidagi mulohaza bunga misol bo'la oladi: «So'z turkumlarida morfologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunmaydigan, nisbiy mustaqil ichki hodisa mavjud»ligi haqidagi mulohazasi e'tiborlidir. A.M.Shcherbakning bu fikri so'z yasash hodisasi talqinida tub burilishga sabab bo'ldi deya olmasak ham, tilda so'z yasashining alohida hodisa ekanligiga doir o'z davrining ilg'or qarashlardan biri sifatida e'tiborga loyiqdir.

O'zbek tilshunosligida birinchilar qatorida so'z yasalishi asosida maxsus tadqiqot olib borgan A.G'ulomovning 50-yillarda e'lon qilgan maqolalaridan birida so'z yasalishi tadqiqining bu davridagi holatiga doir quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin: «So'z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik rejaga qarab kelamiz, holbuki, so'z yasalishi qanday bo'lmasin, biror usul bilan yangi so'z hosil qilishdir. Demak, u leksika – so'zbahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta'limotga ko'ra, so'z yasalishi va so'zo'zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdano'xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisadir: birinchisi-leksikhodisa, ikkinchisi-sintaktik hodisadir», - deb yozgan edi.

Albatta, fanda vujudga kelgan har qanday yangicha qarash qisqa davr ichida va bir yo'la mukammallikka ega bo'la olmaydi, o'z navbatida, tatbiq etilgan har qanday yangilikni mutlaq mukammal deb bo'lmaydi. Buning o'ziga xos dalilini so'z yasalishining goh morfologik, goh leksik hodisa sifatida talqin etilishimisolida kuzatish mumkin. So'z yasalishi hodisasining morfologikformalardan farqli hodisa ekanligini idrok etish va ilmiy asoslash hamko'p bosqichli, davomli izlanishlar natijasida yuzaga kelgan ana shundayxulosalardan biridir.

Hozirgi kunga kelib tilshunoslar tomonidan so'z yasalishini tildagi alohida hodisalardan biri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan omillarni ham yaqin tarix bilan bog'lab bo'lmaydi. Tilshunoslik tarixining 60 yillariga kelib, so'z yasalishini o'rganish bo'yicha to'plangan ana shu boy tajribalar tilning morfologik, fonetikfonologik, leksik-semantik va sintaktik qatlamlari bilan bog'liq qonuniyatlar asosida yanada chuqurlashtirildi. Jumladan, so'z yasalishining hozirgi maqomga ega bo'lishida umumiy tilshunoslikda N.D. Arutyunova, G.O.Vinokur, N.A.Yanko-Trinskaya, A.N.Tixonov, Ye.S.Kubryakova, V.V.Lopatin, I.S.Uluxanov, kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda muhim o'rin tutgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida U. Tursunov, Z. Ma'rupov, A. G'ulomov A. Madraximov, B. Madaliev, A.Hojiev kabilarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Binobarin, aynan ana shu olimlarning sa'yharakatlari tufayli so'z strukturasi namoyon bo'ladigan yasaliş hodisalari, birinchidan, forma yasalişiga daxldor xususiy belgilardan tafovutlandi, ikkinchidan, so'z yasalişining o'ziga xos struktur-semantik imkoniyatlar asosida voqelanishi uning tildagi turli sathlar bilan o'zaro uzviylikda rivojlanuvchi hodisa ekanligi haqida xulosalar yuzaga kela boshladi. Xuddi shunday holatnio'zning mukammal qiyofasiga o'tgan asrning 60 yillarida ega bo'la boshlagankoreys tili grammatikalarida ham kuzatish mumkin. So'z yasalişini lingvistik talqinlaridagi yana bir yo'nalishmazkur hodisaning derivatsiya termini ostida o'rganilishi orqali ko'zgatashalanadi.

Mazkur termin tilshunoslikka kirib o'tgan asrning 60 yillaridachex tilshunosi Ye.Kurilovich tomonidan olib kirilgan edi. U nemistilshunosi Slotting so'z turkumlarida semantik kategoriya va sintaktikfunksiyaning o'zaro mutanosib hamda nomutanosibligini belgilashda muhimbo'lgan omillar haqidagi fikriga munosabat bildirish maqsadida derivatsiyaterminidan foydalanadi.

Biroq Slotti bundaynomuvofiqlikning vujudga kelish sabablari haqida yetarlicha izohkeltirilmaydi. E. Kurilovich Slottning ana shu qarashini to'ldirish maqsadidaso'zlarning birlamchi va ikkilamchi funksiyalarini farqlaydi va uningsabablari haqida o'z qarashlarini bayon qiladi. Uning fikriga ko'ra, birlamchisintaktik funksiya so'zning bevosita semantik strukturasiidan kelib chiqadiva bu funksiya zamirida lug'aviy ma'noning transpozitsiyasi o'z ifodasinitopadi. Biroq olim transpozitsiya terminiga nisbatan kengroq mohiyatli derivatsiya terminidan foydalanishni ma'qul ko'radi va bu terminiquyidagicha izohlaydi: «Derivatsiya termini nafaqat muayyan bir so'zdan boshqaso'zning yasalish jarayonida asosga xos birlamchi yoki ikkilamchi funksiyaniyuzaga chiqishini, balki so'zning turli sintaktik qurshovlar ta'siridaikkilamchi funksiyaga ega bo'lishini ham o'zida aks ettira oladi»Aksincha, u so'z shakllarining yasalishi, so'zning sintaktikqurshov ta'sirida funksional o'zgarishi yoki o'zgarmasligi, ma'no yasalishibilan bog'liq jarayonlarning umumiy ifodalovchisi sifatida xizmat qiladi.

So'z yasalishiga ana shunday munosabatda bo'lganligisintaktik derivatsiya terminining tavsifida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, Ye. Kurilovich bu tavsif orqali qayd etgan asos va derivatsionvositalar birgina so'z yasalishiga olib keluvchi elementlarni nazardatutmaydi. U derivatsion vositalarni keng ma'noda, ya'ni hozirgitilshunoslikda so'z yasovchi, lug'aviy va sintaktik forma yasovchi debyurituladigan vositalar, shuningdek, suffiks xarakteridagi yordamchimorfemalar (so'zlar) miqyosida talqin etadi. Shuning uchun ham sintaktikderivatsiya jarayoni tavsifida asosiy e'tibor, semantik o'zgarishga emas, balkifunksional o'zgarishga qaratiladi. Zero, uning bosh maqsadi ham asosstrukturadagi funksional o'zgarishga va o'zgarmasligiga olib keluvchiholatlarni aniqlash va ularni farqlashdan iborat edi.

Derivatsiya terminining tilshunoslikdagi dastlabki tatbig'i ham uningtor ma'nosida, ya'ni so'z yasash hodisasi bilan ma'nodosh holda amalgaoshiriladi. N. Q. Turniyozovning yozishicha, «Fransuzcha-ruscha lug'at»daderivatsiya (deivation) so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan: a) ajralish, tarmoqlanish; b) chetlashtirish; v) so'z yasalishi; g) aylanib o'tiladigan yo'l; d) farqlash.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida so'z yasalish jarayonining tarixiy bosqichlari til taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan va rivojlangan. Turkiy tillarning qadimgi davridan boshlab so'z yasalishning turli usullari – affiksatsiya, qo'shma so'zlar hosil qilish, semantik yo'l bilan so'z yasash kabi jarayonlar faol qo'llanib kelgan. Keyingi davrlarda, ayniqsa adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida so'z yasalish tizimi yanada boyib, yangi model va vositalar bilan kengaydi.

Tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar so'z yasalishining nazariy asoslarini chuqur o'rganishga, uning tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Natijada o'zbek tilida so'z yasashning turli usullari tizimli ravishda tasniflandi va ularning til taraqqiyotidagi o'rni belgilandi.

Shu bois, o'zbek tilida so'z yasalish jarayonini tarixiy nuqtai nazardan o'rganish nafaqat tilning ichki qonuniyatlarini anglashga, balki uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ham belgilashga xizmat qiladi.

Bu esa o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. O'zbektilshunosligi tarixi.-T., 2002.145-bet.
2. Hojiyev A. O'zbek tili so'ziasalishi. -T., 1989. 31-bet.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.-T., 2002. 194-bet.
4. Turniyozov N.Q. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish.- Samarqand, 1990. 5-bet.
- 5.Қаранг: Кононов А. Н. Грамматика узбекского языка -Т.,1948. -С.92;
- 6.Решетов В. В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. -Т., 1961. -С.92-97.
- 7.Қаранг: Смирнский А.И.Лексикологияанглийского языка.-М., 1956. -С.65-136.